


ABDULLA AVLONIY



«BIRINCHI MUALLIM» KITOBIDAN

«IKKINCHI MUALLIM» KITOBIDAN

«MAKTAB GULISTONI» KTOBIDAN



«BIRINCHI MUALLIM» KITOBIDAN

YOMONLIQ JAZOSI

Bir kishining Qosim ismli bir o'g'li bor erdi. Ota va onasining so'zig'a kirmasdan har xil yomon ishlarni qilur erdi. Bolalar birla urushub, yoqalashub, kiyimlarini yirtub kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarini yegan vaqtda, onasi:

– «Qosim o'g'lim! Taomni sen yedingmi?» – desa, – «Men yeganim yo'q, mushuk yegandur», – der edi. Bora-bora otasining pulini ham o'g'urlab oladurgon bo'ldi. Otasi bilib, «O'g'lim, pulni kim oldi?» – desa, – «Onam olgandur», – deb onasini o'g'ri qilur edi. Bir kuni otasi ustol ustig'a bir tanga pul qo'yub, o'zi uxlagan kishi bo'lub yotdi. Qosim kelub, sekin tangani olib og'ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo'lganda tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning xalqumig'a tiqilib, jon berdi.
Ey bolalar! Ko'rdingizmi, yomonning yomonligi o'z boshig'a yetdi.

BAXTLI BOLA

Dunyoda eng baxtli bolalar o'qumak, yozmakni bilgan bolalardir. Baxtli bola aqlli, adabli, yaxshi xulqli, to'g'ri so'zli bo'lur. Kattalarni hurmat, kichiklarga shafqat qilur, hech kimni ranjitmas, birovga ziyon bo'ladurg'on ishni qilmas, maqtanuvchi, hasad qiluvchi, chaqimchi bo'lmas. Faqirlarga yordam, muxtojlariga marhamat, bechoralarga muruvvat, kambag'allarga shafqat, ota, ona, ustod, muallim, qarindosh-urug'larni izzat qilur. Bunday bolalardin Alloh taolo ham rozi bo'lur.

QANOAT

Bir kishining Ali ham Vali ismli ikki o'g'li bor erdi. Ali qanoatli, Vali qanoatsiz erdi. Bir kun otasi bozordan olma olub kelub, bolalarini sinamoq uchun chaqirub, mana, bolalarim sizga olma beraman, – dedi. Vali tezlik birla kelub: «Otajon, menga hamma-sini bering» – dedi.

Ali sekingina kelub, manga birgina olma bersangiz bo'ladur, – dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin qilub, quchog'iga olub, peshonasidin o'pub, ikki olma berdi. Ammo Valiga olma bermak qayda, balki qanoatsiz bo'lma, deb adab berdi.

*Qanoat birla qorun to'ydirursiz,
Qanoat bo'lmasa, ko'p och qolursiz.
Qanoatsiz kishi bag'rini dog'lar.
Qanoatlik kishi og'zini yog'lar.*

ZAR QADRINI ZARGAR BILUR

Bir kun bechora Xurus ayog'lari ila xashak orasini axtarub turgan zamonda bir dona marvarid topdi. Ul marvaridni cho'qub-cho'qub, nola qilub: «Oh aqlsiz odam bolalari! Hech narsaga yaramaydurgon narsalarni qadrlilub, eng

qadrlı narsalarning qadrlı bilmaslar. Hozirda man buni tobğ'uncha, bir dona bug'doy tobsam edi, menga ovqat bo'lur edi» – deb xafa bo'lur edi.

*Har kishi o'z nafsiga bir pul uchun g'avg'o qilur,
Boshqaga ming so'm zarar kelsa, qachon parvo qilur.
Har kim o'z qomin adosidur, agar eshondur,
Qushdur, insondur, o'zining qornig'a qurbondur.*

YAXSHILIK YERDA QOLMAS

Bir ari suv ustında uchib borur edi. Birdan suvga yiqilub ketdi. Qanotlari ho'l bo'lub ucharga kuchi yetmadi. O'lar holatga yetdi. Buni bir kabutar ko'rub, ariga rahmi kelub, darhol bir cho'bni tishlab, suvga tashladi. Bechora ari bu cho'bni kema qilub, suv balosidin qutuldi. Oradan ko'p o'tmadi. Bir bola tuzoq qo'yub, kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rgan zamon kelub, bolaning qulog'ini chaqdi. Bola qulog'ining alamidan tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi. Kabutar vaqtini g'animat bilub, uchub ketub o'lumdan qutuldi.

*Yaxshilik qilsang, bo'lur joning omon,
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.
Turkiy guliston yoxud axloq kitobi
Turkiy guliston yoxud axloq kitobi
Yaxshi so'z birlan ilon indan chiqar,
So'z yomon bo'lsa, pichoq qindan chiqar.*

TO'G'RILIK

Bir kampiring uyında bir tup balx tuti bor erdi. Nihoyatda to'g'ri o'sgan edi. Bechora kampiring shul tutdan boshqa hech narsasi yo'q edi. Pishgan vaqtda qurutub olub, bordonga solub, boylarga tortuq qilub, pul olub, butun ovqatini tut sotub o'tkarur edi. Bir kun ul shaharning podshohi bir ayvon solmoqchi bo'lub, ustun axtarganda kampiring tuti to'g'ri keldi. Podshoh tutni ming oltinga sotub oldi. Bechora kampir boy xotin bo'lub qoldi. Bir kun tutni ko'rgali bordi. Ko'rdiki, tuti jannat kabi bir ayvon o'rtasında turubdur. Kampir tutiga qarab dediki:

*Ey, tutim, to'griliging qildi bizi davlatg'a yor,
Egri bo'lsang, san o'tun bo'lg'ay eding, man xor-zor.
To'g'rilar jannatning ayvonindadur,
O'g'rilar ranj-u alam konindadur.*

ITTIFOQ

Jonivorlar ichında eng kichiklari chumolidur. Lekin o'zlari kichik bo'lsalar ham nihoyatda g'ayratli, ittifoq hayvonlardur. O'zlaricha podsholari, kattalari, askarlari bo'ludur. Ulug'lari nimani buyursa, shuni qilur. Ittifoq va g'ayratlari soyasında o'zlaridan katta-katta dushmanlardan qo'rqmaslar. Agar ari kabi dushman kelub, birlariga tegsa, hamma-hammalari birdan dushmanga yopushub, biri qo'lini, biri ayog'ini, biri qanotini qattiq tishlab, o'zlarından necha barobar katta bo'lsa ham tezgina qochururlar.

*Ko'rdingizmi, yung o'zi xo'b maydadur,
Birlashub arqon bo'lsa, fil boylanur.
Ittifoqqa kuch-quvvat kor aylamas,
Ittifoqqa jin ham ozor aylamas.*

«IKKINCHI MUALLIM» KITOBIDAN

MAKTAB

*Maktab uyi – dorilomon,
Maktab hayoti jovidon.
Maktab safoyi qalbi jon,
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!*

*Maktab erur doruladab,
Maktab erur ehsoni Rab.
Maktab erur gulzori ajab,
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!*

*Maktab dur-u gavhar sochar,
Maktab siza jannat ochar,
Maktab jaholatdan qochar,
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!*

*Maktab sizi inson qilur,
Maktab hayo ehson qilur,*

*Maktab g'ami vayron qilur,
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!..*

*Maktab berur Qur'on siza,
Maktab berur imon siza,
Maktab berur huron siza,
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!..*

*Maktab o'quvni ko'rsatur,
Maktab yozuvni o'rgatur,
Maktab uyqudan uyg'otur,
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!*

*Maktabdadur ilm-u kamol,
Maktabdadur husn-u jamol,
Maktabdadur milliy xayol,
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!*

*Maktab demak masjid yo'li,
Maktab erur jannat guli.
Maktabni sizlar bulbuli
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!*

SAXIYLIK

Bir kishining Said ismli o'g'li bor edi. Otasi har kun maktabda taom olib yemak uchun o'n tiyin pul berur edi. Bir kun maktabga ketub borganda, bir faqir kishi yo'luqub:

- O'g'lim, ikki kundan beri ochman. Taom olib yey desam ustimdagi yirtiq chakmondan boshqa hech narsam yo'q. Bir oz aqchang bo'lsa, bersang, savob topur eding, – dedi.

Said faqirning so'ziga toqatsiz bo'lub, holig'a rahmi kelub, otasi bergan o'n tiyin pulni faqirga berdi. Faqir bu yosh Saidning qilgan shafqat-u marhamatiga ofarin qilub, yig'lay-yig'lay duolar qilub ketdi. Said ul kun o'zi och qolsa ham, ochlig'ini hech kimga bildurmay sabr-u qanoat ila o'tkazdi. Maktabdan ozod bo'lub, uyiga borgan zamon qilgon ishini otasiga so'zlad. Otasi ham «saxiy Saidim», – deb xursand bo'lub, duo qildi ham bundan so'ng Saidga har kun yigirma tiyindan berurga va'da qildi. Saodatli Said otasi bergan yigirma tiyinning o'n tiyini yeb, beshini faqirlarga berub, beshini yig'ub, tezdin boy bo'lub ketdi.

AXLOQIY HIKOYA

*Eshitdimki, mashhur Majnuni zor,
Bo'lub mavti Laylosidin beqaror.*

*Ketib hushidin, bo'ldi holi xarob,
Ravon bo'ldi Layloni qabhn so'rob.*

*Yo'luqti bir o'g'lon - edi hushyor,
Zamondan xabardor edi, aqli bor.*

*Dedi: Ey o'g'il, qabri Laylo qayon?
O'g'il kuldi, berdi javobin ravon, -*

*Dedi: Sizmusiz ishq lofun uran?
Topar so'rmayin, ishq kayfin suran.*

*Mozora bomb ista har go'rdan,
Olib xokini iska, mazkurdan.*

*Ala yerdan kelsa ishq savdo isi,
U tufroq erur Layloning turbasi.*

ARSLON ILA AYIQ

Bir kun Arslon ila Ayiq ikkisi do'st bo'lub, ov qilmoqchi bo'ldilar. Sahroga chiqub, yugurub-yelub bir kiyikni tutdilar. Yemakchi bo'lub turgan vaqtlarinda oralarinda urush paydo bo'ldi. Arslon: – Man kattaman, manga ko'brog' berursan. Ayiq: – Man kichik bo'lsam ham sandan ko'b harakat qildim, yugurdim, yeldim. San bir joyda qarab turding. Sergo'sht yerni man yerman, deb urush boshladilar. Shul darajaga yetdilarki, ikkisi ham o'lar holatga yetub, yerga yiqilub, qimirlashga majol qolmadi. Bularning holidan bir necha bo'rilar xabardor bo'lub, kelushub tayyorgina kiyik go' shtini yeb, – suyagini qo'yub ketdilar. Bu ikki janjal qilgan bechoralar bir-birlariga der edilarki, agar bizlar urushmagan bo'lsak edi, ikkimizning ham qornimiz to'ygon bo'lur edi. Mana, urushgonimiz uchun ikkimiz ham og'zimizdagi oshimizdan ayrilduk, deb afsus qilub, oxirda surgolib borub, molimizning so'lakayi deb, quruq suyakni chaynadilar .

*Urushgonlar suyakni zo'rg'a chaynar,
Tamoshachi suyaksiz etni poylar.*

*Ketub qaymog'i, sut qolg'ay o'ziga,
Sut ham shirin ko'ringay och ko'ziga.*

BULBUL ILA ESHAK

*Bir kuni bulbul ila bo'ldi eshak o'rtog'lar,
Yurdilar aylab tamosho, har taraf gulbog'lar.*

*Bir zamon eshak dedi: Ey, bulbuli shirin zabon,
Sayragil, do'stim, bu dam, ketsun yurakdan dog'lar.*

*O'lturub gul shohig'a bulbul chunon qildi fig'on,
Bo'ldi hayvonlarda ish tashlab quloq solmog'lar.*

*Barcha qushlar ofarinlar qildi bulbul dovushiga,
Sel bo'lub ochdi u dam gul g'unchasi yafrog'lar.*

*Bir zamon bulbul sadosini qilub erdi tamom,
Hangradi eshak, hama qochdi yig'ilgan zog'lar.*

*Ko'rdi eshak ul zamon, hech kimsa yo'q gulzorda,
Yerga ag'nab sochti boshiga qum-u tufrog'lar.*

*Aytdi: Ey bulbuli ajoyib! Sayrashing yaxshi ekan,
Man kabi dovushing sani qilmas dimog'i chog'lar.*

*Sayrashingiz kishilarga eshitmak yaxshidur,
Man baqirsam, ishlariga qildilar ketmog'lar.*

*Ko'ylagi yo'qlar, tizi yirtiq kishilardan kular,
Xoh hayvon, xoh insondur – o'zini sog'lar.*

*Har kishi o'z aybini ko'rmas, kishi aybin ko'rar,
O'zgani bir ignacha aybi ko'ringay tog'lar.*

BOG'CHA

*Bog'chalarning xo'b yaxshidur havosi
, Jong'a rohat verur zavq-u safosi.
Yig'ochlar-da yashil yafrog' ichinda,
Rang-barang gullarning yashnar ziyosi.*

*Sabza o'tlar orasinda ochilgan
Binafsha-u qizil gul-u ra'nosi.
Lekin gulning yoshlik kabi umri oz,
Tez yo'q bo'lur xush qomati zebosi.*

*Yaxshi verur bog', ishlasa bog'bon,
Cho'nchakinda ko'b bo'lg'usi aqchosi.
Yoshligida ko'b o'qug'on bolani,
Qariganda obod o'lur dunyosi.*

HASAD BALOSI

Bir kun zog'cha insonlar kabutarlarni boqub, alarga don berub, yaxshi uyalar yasab berganlariga hasad qilub, ko'rolmadi. Bul ham kabutar bo'lub, tekin donlardan yeb, rohatda yashamoq bo'ldi. O'zini oq bo'rga bo'yab, kabutarxonag'a kelub, kabutarlar ila birga yashamoqg'a boshladi. Bir kun osmonda uchub boradurg'on borcha zog'chalarni ko'rub, birdan «chag'» deb qichqirub yubordi. Hamma kabutarlar buni zog'cha ekanin bilub, har tarafdin yopushub cho'qiy boshladilar. Bechora zog'cha kabutarlar orasindan zo'rg'a qochub, zog'chalar orasig'a borub qo'shildi. Zog'chalar ham buni zog'cha ekoniga ishonmadilar. Har qancha «chag' chag'» deb yoborsa ham: – Ho nodon, bizni aldayman dersanmi? Bor, zog'cha bo'lsang oq choponingni yeshib ke! – deb bular ham (aning) boshlariga cho'qub-cho'qub jo'natdilar.

Hissa: Bechora zog'cha hasad balosiga yo'luqub, ikki jahon ovorasi bo'lub qoldi.

AQLLI BOLA

Bir bola qo'shnining uyiga o'ralmish tabaqda taom olib borur edi. Bir kishi uchrab:

- Ey o'g'lim, tabaqda nima olib borursan? - dedi. Aqlli bola javob berdiki:

- Ey otajon, tabaq ichindagi narsaning kishiga aytmog' va ko'rsat-mog' mumkin bo'lsa edi, usti o'ralmagan, ochiq bo'lur edi, - dedi.

YOLG'ON DO'ST

Bir vaqt ikki kishi do'st bo'lib safarga chiqmishlar edi. Bir tog' ichindan ketub borganlarida uzog'dan bir yo'lbarsni ko'rmishlar. Do'stlarning biri darhol yugurub bir daraxt ustiga chiqmish. Ikkinchisi shoshilub qolub, nima qilishin bilmay: yerga cho'zulub, o'lukg'a o'xshab yotmish. Yo'lbars kelub iskab-iskab o'luk gumon qilub qaytib ketmish. O'rtog'i daraxtdan tushub: «Birodar, yo'lbars qulog'ingga nima deb so'zlab ketdi», deb so'ramish. Yo'ldoshi: «Zh, do'stim! Shodlig'ingda o'rtog' bo'lib, g'am vaqtida tashlab qochadurgon nomard kishilar ila yo'ldosh bo'lma!», – deb so'zlab ketdi, deb javob bermish.

CHIN DO'ST

*Ikki odam bir-biriga do'st bo'ldilar chunon,
Bir nafas ayrilmas erdi bir-biridan ikki jon.
Maslahat birla safar qilmoqni aylab ixtiyor,
Bo'ldilar sahro tamoshosi uchun bir kun ravon.
Yo'lda bir daryodan o'tmak to'g'ri keldi do'stlara,
O'lturub bir kemaga ketmog'da erdilar hamon.
Bir zamon to'lqin kelub ul kemani qildi xarob,
Ul ikki o'rtog' yiqildilar suv uzra nogahon.
Suv yuzinda ul zamon ketmakda erdilar oqib,
Suvchilar keldilar ushlab olg'ali suvdan omon.
Ul ikki do'stning birini tutsa suvchig'a dedi: –
«Qo'y mani, avval borub do'stimni qutqar beziyon».
Suvchi borub ushlasa o'rtog'ini,
Ul ham aylar: «Do'st qutulsun» – deb fig'on.
Ko'rdingizmi? E y, shirin o'g'lonlarim,
Do'stlig'dan bu siza bir doston.*

XURUS ILA BO'RI

Bir bo'ri daraxt ustinda o'ltirgon xurusni ko'rub, tutub yemak uchun daraxt ostiga keldi. Hiyla birla bechora xurusni daraxtdan tushurmoqchi bo'lub: «Ey, xurus o'rtog'! Man sanga bir yaxshi xabar kelturdim. Hayvonlar ila qushlar arosinda sulh bo'ldi. Bir-biriga zulm qilmasga, biri ikkinchisin tutub yemasga qaror verildi. Kel birodar, pastga tush! Bir-birimizga do'st bo'lib, birga o'ynashayluk», dedi. Xurus bo'riining so'ziga aldanadurgon darajada nodon va ahmoq bo'lmadug'indan bo'riga boqub, dediki:

– Do'stim, so'zing rostdur, to'g'ridur. Lekin bir oz sabr qil, sandan boshqa ikki it ham sulh xabarin keltururlar. Alar ham kelsunlar. Hammamiz birga o'ynashurmiz, – dedi. Bo'ri xurusdan bu so'zni eshitgan zamon dumini orqasig'a qo'yub qocha boshladi. Xurus: «Ho, birodar, nima uchun qochursan, orada sulh bor-ku?» – desa, bo'ri: – Oh do'stim! Bu zolim itlar sulhni buzgong'a o'xshaydur, – deb qochub ketdi. Xurus orqasindan «quq... ququ...» deb qichqirub qoldi.

*Go'zallik yuzda ermas ey birodar,
So'zi shirin kishi har kimga yoqar.*

*So'zing oz o'lsin-u, ko'b ma'ni bo'lsun,
Eshitganlar qulog'i durga to'lsun.*

*Takabbur bo'lmag'il, bo'lq'il muloyim,
Bo'lursan shod-u xurramlikda doim.*

*Birov qilsa g'azab, san so'kma oni,
Budur yaxshi kishilarning nishoni.*

*Yomonlig' qilsalar, san yaxshilik qil,
Yomonlig'ni ho'kizning bo'ynig'a il.*

*Nasihatni qulog'ingg'a ilib ol,
Yomon so'zni eshitmay tez ketib qol.*

*So'zing bo'lsa kumush, jim turmoq oltun,
Misi chiqq'ay, so'zing ko'b bo'lsa bir kun.*

Ko'paygan so'zni bo'lq'ay to'g'risi oz,

Shakarning ko'pidin ozi bo'lur soz.

*Birovdan bir nimarsa so'rma zinhor,
Kishining minnati sanga na darkor...*

*Talab qilg'il murodingni Xudodin,
Gadosan, so'r muroding podishodin.*

*Jadal qil ilm uchun o'g'lim hamisha,
Kuching borida g'ayrat birla pasha.*

*Ekin vaqtida uxlab yotsa dehqon,
O'roq vaqtida bo'lg'ay ko'zlari qon.*

*Aql egasi hiylaga aldanmagay
Hiylagarning hiylasi boshin yegay*

*Do'st ila dushman so'zining farqi bor,
Fahm etar har kimki, bo'lsa hushyor.*

BOLALAR BOG'CHASI

*Yigitlikda o'quvdan qolsang o'g'tan,
Qahganda pushaymonsan, pushaymon.
Ulug'lik mol-u davlat birla ermas,
Salomat bo'lsa aqling sanga shut bas.*

MAKTABA DA'VAT

*Boqdi gunash panjaradin bizlara,
Yotma! Deyur barcha o'g'il-qizlara.*

*Nolayi faryod qilib barcha qush:
-Maktabingiz vaqti, deyur sizlara.*

*Boshladi har kim o'z ishin ishlara,
Siz-da, turing maktabingiz izlara.*

*Uchdi ari bog'chalara bol uchun,
Buzov turur uyda cho'kub tizlara.*

*Siz-da, kitoblaring oling shavq ila,
Tez yuguring ilm yo'lin tezlara...*

«MAKTAB GULISTONI» KITOBIDAN

VATAN

*Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim seni qadring bilmas aqli pasdur.*

*Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur,
Sening darding boshqa dardni tortib olur.*

*Yering, suving bizni boqub to'ydurodur,
Semiz-semiz qo'ylaringni so'ydurodur.*

*Olma, anor, anjir, uzum mevalaring,
Ot-u ho'kuz, echki-taka, tevalaring,*

*Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
Har birlari noz-u ne'mat borchalari.*

*Sandan tug'ub katta bo'lub, qaytub borub,
Yana sanga kirodurmiz bag'ring yorub.*

*Onamizsan, bizning mushfiq onamizsan,
Javlon urub yashaydurgon xonamizsan.*

*Sani sotmoq mumkinmudur? O'zing o'yla,
Tiling bo'lsa hasratlaring tuzuk so'yla.*

*Bizlar sotmas burun qilur erding faryod,
Biz sotgan so'ng nega dersan bizlardan dod.*

*Ayb bizlarda, seni sog'ub emolmaduk,
Yemush berub, yem o'rninga yem olmaduk.*

HURON SO'ZI

*Tug'ub o'sdim bu vatanda,
Vatanim misli yo'q jahonda.*

*Tufroqlari o'sumlikdur,
Manzarasi ko'rumlikdur.*

*Bir tarafda toglari boi;
Mevasi mol, boglari bor.*

*Toglaridan konlar chiqar,
Yerlaridan donlar chiqar.*

*Suvlaridur ta'mlijotli,
Mevasi qand-u nabotli.*

*Bog'laridur shirin-sharbat,
Anjir, uzum, anor, nashvat.*

*Daraxtlari o'sar firosch,
Falak uzra ko'tarub bosh.*

*Havosi o'rta yoqumlik,
Cho'llari bor toshlik, qumlik.*

*Toshkand emas, Toshqand erur,
Kesaklari gulqand erur.*

*Ishlagang'a xazinadur,
Dangasaga harinadur.*

*Kecha-kunduz faryod etub,
Ishlovchini yotur kutub.*

*O'tar kunlar, o'tar zamon,
Ey, vatanim bo'lma «Hijron».*

*Men ketarimda san bo'l omon,
Omon Vatan, Vatan omon.*

G'AYRI JINS ITTIFOQ

(Krilufdan tarjima)

*Bir kuni toshbaqa, baliq, o'rdak,
Qildilar maslahat uchi birdak.*

*Dedilar: Biz arabakash bo'lamiz,
Tortarmiz arabani va yo o'lamiz.*

*Yopushub bir arabaga mahkam,
Jon-dildan chekurdi uch hamdam.*

*Kuchlari arabaga yetushmas edi,
Araba bunlar yo'liga ketmas edi.*

*O'rdak osmon sariga tortardi,
Baliq ersa yoniga tortardi,*

*Toshbaqa sudrar erdi orqa sari,
Yo'q edi ittifoqning asari.*

*Qildilar qancha sa'yi bebarakat,
Araba o'rnida turdi beharakat.*

*Munda kim ayb egasi, kim aybsiz,
Bu havodis bizim uchun kayfsiz.*

*Bu ishi har kishi go'zal biladur,
Araba hamon qimirlamay turadur.*

TULKI ILA SERKA

(Krilufdan tarjima)

*Tulki sakrab yurur edi cho'lda,
Bir quduq bor edi o'shal yo'lda.
Nogahon tushdi-ketdi gumburlab,
Choh ichunda o'tirdi g'ung'urlab.
Ul quduq tor edi, chiqolmaz edi,
Tulkining baxtiga suvi oz edi.
Serka o'tlab yururdi narirog'da,
Susabon suv qidirdi shul chog'da.
Serka choh boshiga kelib oralab,
Ko'rdi tulkini tepadan mo'ralab.
Tebratub to'rbadek uzun soqolin,
So'rdi tulkining hol-ahvolin.
Serka'ga tulki maqtadi suvni,
Suv deganda toshardi nafsi uni.
«Suv desang, tush, bu yerga, ulfat bo'l,
Suv degan bu quduqda erkan mo'l».
Serka otdi o'zin quduq sori,
Tulkining hiylasi bo'lib bori.
«Gum» etib tushdi serka suv ichig'a,
Suvlari sachradi quduq chetig'a.
Tulki aytdi: «Oyo, uzun soqol!
Do'zaxa yetding endi sen yoqqol.
Suvni to'ygancha man ichub erdim,
Qolganin butun sanga berdim».
Sakrabon serka ustiga chiqdi,
Andan irg'ib yuqoriga chiqdi.
Serkaning sohibi necha muddat,
Axtarubon bo'lub edi diqqat.
Oxiri bu quduqda ko'rdi oni,
Serkaning qolmish erdi yorti joni.
Ming mashaqqat birlan chiqardi bazo'r,
Serka bo'lgan edi cho'loq ham ko'r.
Sohibi serkaning ko'rub holin,
Aytdi boshin silab, tarab yolin:
«Ey soqoli cho'q, aqli yo'q serkam,
Qildi hijron soddalik, erkam...»*

MAYMUN ILA KO'ZOYNAK

(Krilufdan tarjima)

*Juda qartaymish erdi bir maymun,
Ko'zining nuri qolmab erdi butun.
Ul eshitdi bu dard uchun darmon
-Ko'zoynak tutar emish inson.
Pul yig'ub ko'zguni sotub oldi,
O'zini qayta zahmata soldi.
Goh tutardi dumiga, goh ko'ziga,
Foyda bermasdi oynagi o'ziga.
Bo'ldi maymun taqolmayin hayron,
Dedi: «Xo'b hiylagar erur inson.
Manga kim dedi oynak olg'il deb,
Kim buyurdi ko'zingg'a solg'il deb.*

*Qursin oynak, ko'zimni qildi xira,
Taqmaram oynakni endi sira.
Tuf! Bu dunyoni e'tibori yo'q,
Ochni holin bilarmi qorni to'q?
Sarf etar pulni yo'qq'a insonlar,
Qilmayur ko'r va sholg'a ehsonlar.
Kimga aytay bu dard-u hasratni,
Kim eshitgay bu qayg'u, kulfatni.
Ko'zlarim ojiz, o'zim qariman,
Mustahiqman, kamina kamtarinman.
Hech kishi so'rmayur bu ahvolim,
Ketdi quvvat, madorim, iqbolim.
Ko'zgu ham menga qilmadi darmon,
Dilda hasrat, ko'ngulda ko'p armon.
Ko'zguning xayri yo'q ekan misqol»,
-Deb otib toshga urdi ul darhol.
Oynagin parcha-parcha qildi o'zi,
O'rtanub der edi o'zi bu so'zi:
«Oynak olmoq o'zi ekan oson,
Mushkili ani taqmog'ida ekan».
Kimki haddidan oshib ish qilsa,
Oxiri bo'lur shulay, «Hijron».*

IT ILA YO'LOVCHI

(Krilufdan tarjima)

*Kechqurun yo'l ketardi ikki kishi,
So'zlashuvdin yo'q erdi o'zga ishi.
Nogahon bir kuchuk chiqub bog'dan,
Vovulladi bunlara so'l-u sog'dan.
It ovozin eshitdi boshqalari,
Keldilar, jam bo'ldi yosh-u qari.
Yig'ilib barchasi hujum etdi,
Yo'Ichilar aqli boshidan ketdi.
Yo'Ichilardan biri olib bir tosh,
Urmoq bo'lg'onda aytdi bir yo'ldosh:
«Qo'y, qo'ling og'ritub nima qilasan,
Itlarning fe'lini o'zing bilasan.
Hamla qilg'ang'a bermayur rohat,
It guruhinda bo'yladur odat».
Itlarga solmayin qulog', onlar,
To'g'ri keturdilar ikki jonlar.
Ur-yiqit, sekin-sekin hammasi,
Tarqalub ketdi, qolmadi birisi.
It degan itligin qilaberadur,
E'tibor etmasang ketaberadur.*

ZULUK ILA ILON

*Bir kuni bir ilon zuluk ko'rdi,
Bu so'zini zulukdan ul so'rdi:*

*Dedi: «Hayrondaman bu ishga ajab,
Manga suvratda o'xshayursan hab.*

*Na uchun seni suyar inson,
Meni ko'rsa, bo'lur joni larzon.*

*Nimaga suymayur meni birisi,
Seni siylab boqadur har birisi.*

*San-da sancharsan odama, man-da,
Na sabab bor bilmazam munda?»*

*So'zini sob qilub edi u ilon,
Kulubon so'yladi zuluk chunon:*

«So'zlaring tog'ridur, borisi haq,
Haqiqiy so'zlayin sanga onjaq.

Man tabiatda sancharam sandek,
Nashtar urmoqda ikkimiz birdek.

Qay zamon sanchsang sen insonni,
U zamonda chiqar aning joni.

Man esa sanchuram xo'b ohista,
Sog'olur tishlasam qayu hasta.

Manga boqmay sanga boqarmu kishi?
Zulm hech kimsaga yoqormu kishi?

Zulmdan doimo qochar inson,
Nashtaring jonlari qilar «Hijron».

TULKI ILA QARG'A

Bir kuni och qolib edi tulki,
Ochlig'indan tolib edi tulki.

Necha xil hiylalarni o'ylar edi,
Ochlig'in o'z o'ziga so'ylar edi.

Hech kishi yetmas erdi dodiga,
Bir qiziq hiyla tushdi yodiga.

Bir chinorda bor erdi laklak ini,
Uchta yosh bolasi bor erdi ani.

Tulki qurdi u dom tazvirin,
Ishlatur bo'ldi hiyla tadbirin.

Oldi arra, teshasini ko'tarib,
Kesmoq uchun chinor tubiga borib.

Laklaka aydi: «Ey uzun bo'ylik,
Bizning yerda bo'lurmisan uylik.

Bu daraxt, yer meros manga otadan,
O'zga joyda in qo'yub yotasan.

Ket bu yerdan bo'lak yera in sol,
Man kesarman chinorimi alhol».

Laklak aytdi: «Birodar jonim,
Holima rahm ayla jononim.

Buzub uyimni qilmag'il giryon,
Uyi yiqqanlar bo'lur xonavayron.

Marhamat qil bu yosh go'daklarima,
Mone' o'lma butun tilaklarima.

Bir bolamni beray, yebon to'yg'il,
Xonavayron qilma tinch qo'yg'il».

Bir bolasini tulkig'a otdi,
Bo'ldi ma'yus, qayg'uiga botdi.

Tulki qornini to'yg'ozub ketdi,
Hiyla birlan murodig'a yetdi.

Qarg'a voqif edi, bu ishlardan,
Laklaka o'rgatay dedi bir fan:

«Xo'b uzundur bo'ying-u, aqling oz,

Qishga yo'q toqating, tilarsan yoz.

*Tulkining korimu o'tin kesmoq?
Shunga ham yetmas aqling, ey ahmoq!*

*Yo'qq'a bir bola aylading qurbon,
Befarosat tushunchasiz, nodon».*

*Qarg'aning so'zlari qilub ta'sir,
Bildi tulki so'zi ekan tadbir.*

*Ertasi keldi hiylagar tulki,
Tamayi qo'zg'olub chu avvalgi.*

*Yana osti chinorig'a yetdi,
Ket debon laklaka xitob etdi.*

*Laklak aytdi: «Yo'qol, oyo xoin,
Ishla hiylangni san bilub joyin».*

*Qarg'aning pand bergonin bildi,
Ochlik bag'rini yana tildi.*

*Hiylasin qarg'a soriga burdi,
Qarg'ani tutmog'a tuzog' qurdi.*

*Bir baland yerda yotdi o'lgondek,
Ko'zlarin yumdi murda bo'lgondek.*

*Qarg'a tulkini o'luk gumon aylab,
Qo'ndi boshining ustiga poylab.*

*Cho'qimoqchi bo'lub edi ko'zini,
Hiylagar tulki tishladi o'zini.*

*Dod-faryodiga nazar solmay,
Qarg'ani tulki boshladi yamlay.*

*Qarg'a chindan o'larini bildi,
Bu-da bir yaxshi hiylani qildi.*

*Tulkiga: «Ey, birodar jonim,
Sanga bo'lsun halol et va qonim.*

*Bu baytni o'qub, yegil go'shtim,
Bu vasiyatni sanga man qo'shtim.*

*Bevatan, be go'r-u kafan qarg'a,
Laklaka yaxshilik edan qarg'a».*

*Tulki bu baytni o'qumoq uchun,
Shavq ila yig'di tanda bor kuchin.*

*«Bevatan, bego'r-u kafan qarg'a
Laklaka yaxshilik edan qarg'a».*

*Tulki «qarg'a» deganda og'zin ochib,
O'q kabi qarg'a chiqdi, ketdi qochib.*

*Tulki hayronda qoldi, aqli shoshib,
Bo'ldi «Hijron» bo'g'umlari bo'shoshib.*

*Hiylada mandan o'tdi qarg'a debon,
O'kunub, xo'rsunub yedi pushmon.*

*Qarg'a maqsud-murodiga yetdi,
Hiylagar tulki och qolub ketdi.*

YOLG'ONCHI CHO'PON

*Bir kuni cho'pon qilub faryod,
Bo'ri keldi debon chaqirdi: dod!*

*Qishloqilar yugurdilar birdan,
Qo'ylari asramoq uchun bo'ridan.*

*Bunlari holini ko'rub cho'pon,
Qahqaha ila kulub dedi: «Yoron!*

*Aldabon sizlari chaqirmish edim,
Sinamoqqa sizi baqirmish edim».*

*Aldanub qaytdilar alar ul on,
Ertasiga yana chaqiradur cho'pon.*

*«Bo'ri keldi» – debon fig'on etdi,
Bo'rilar qo'ylara kelub yetdi.*

*Eshidanlar bunga inonmadilar,
Dod-faryodiga ishonmadilar.*

*Yedilar bo'rilar hama qo'yini,
Mana, jonim, yolonchilik o'yini.*

*Ko'rdingizmi, yolonchilik zararini?
Bir yolon so'z yo'q etdi, bol-u parin.*

*Bir yolonchi bo'lub edi cho'pon,
To'g'ri so'zlasa ham ko'rundi yolon.*

*O'g'lim, aytma yolon so'z aslo!
Do'st tutmas yolonchini Alloh.*

*Hamda el ichra hurmati bo'lmas,
Xalq aro qadr-u qiymati bo'lmas.*

*Uyi kuysa, yolonchini dedilar,
Anda hech kim ishonmayur edilar.*

*To'g'ri so'z qutqarur balolardan,
Dog'i «Hijron»u mojarolardan.*

LUG'AT

A

Aqsom - qismlar, farmonlar (birligi - qism).
Ahkom - hukmlar, farmonlar.
Abas – foydasiz, o'rinsiz.
Adovat – dushmanlik, kek.
Ajz – kuchsizlik, iqtidorsizlik.
Amal – 1) ish, harakat, 2) mansab.
Amora – amr etuvchi, qistovchi, buyuruvchi, hukmron.
Anoniyat – manmanlik, g'urur, xudbinlik.
Arar – sarv, qaddi qomati kelishgan.
Arasot – maydonlar, sahnlar (birligi – arsa).
Atolat – mutaassiblik, mo'rtlik, bo'shlik.
Afv – kechirish.
Afrod – yakkalar, yolg'izlar (birligi – fard).
Af'i – zaharli.
Af'ol – harakatlar, qiliqlar (birligi – fe'l).
A'mo – ko'r, so'qir.
A'mol – amallar, ishlar (birligi – amal).
Axavon – birodarlar, o'rtoqlar.

B

Baid - yiroq, uzoq.
Balig' - nafis, silliq.
Balohat - ahmoqlik, razillik.
Barbod - yelga, havoga sovurmoq.
Basit - sodda, oddiy.
Bebok - beparvo, hayosiz, bevosh.
Bori - yaratuvchi, Xudo.
Buxl - baxillik, qizg'anchilik
Bu'z - kiyina, kek, gina, dushmanlik.

V

Viqor - og'iriik, chidam, ulug'vorlik.
Vojib - bajarilishi zarur, majburiy.
Voqif - xabardor; biluvchi.
Vuqur - chidamlilik, bardoshlilik

G

Go'sha – burchak, xilvat, chekka joy.
Go'shanishin – xilvatga kiruvchi, xilvatda o'tiruvchi.

D

Darajot – darajalar, martabalar (birligi – daraja).
Daroz – uzun.
Dast – qo'l.
Daf' – qaytarish, rad etish.
Dahr – dunyo, olam.
Digar – boshqa.
Diyonat – 1) soflilik, to'g'rilik. 2) dindorlik.
Dor – uy, xona.

Z

Zabon – til.
Zabt – qo'lga olish, egallash.
Zavol – yo'q bo'lish, so'nish, botish.
Zako – zehnlilik, tez tushina olishlik, ziyraklik.
Zalil – xor, faqir, tuban.
Zalillik – xorlik, haqirlik.
Zamima – yomon, yomonlashga loyiq, axloqi zamima – yomon xulqlar, yaramas odatlar.
Zeroki – chunki.
Zi – tirik, jonli.
Zidd – qarshi, qarama-qarshi.
Zillat – past, pastkashlik.
Ziroat – ekin, ekish, dehqonchilik.
Zoye' - yo'qolgan, nobud bo'lgan.
Zoyil – o'chmoq, yo'q bo'lmoq.
Zokir – yod qiluvchi, tilga oluvchi.
Zohir – ko'rinib turgan, oshkor.
Zohiran – yuzada, ko'rinishda, tashqi tomoni.
Zohirparast – ishga yuzaki qarash, bir narsaning tashqi tomoniga e'tibor berish.
Zulumot – zulmatlar, qorong'uliklar (birligi – zulmat).

J

Javorih - badan a'zolari: qo'l, oyoq, ko'z, quloq kabi.
Jamol - go'zallik, husn.
Jahd - tirishish, astoydil harakat qilish.
Jahim - jahannam, do'zah.
Jahl - bilmaslik, bilimsizlik - nodonlik
Jaholat - johillik, nodonlik
Jibohat - qo'rqqoqlik, qat'iyatsizlik.
Jidd - tirishish, sa'y, cholishish.

Jinon - jannatlar (birligi - jannat).
Jovidon - abadiy, doimiy mangu.
Jurm - gunoh jinoyat.

I

Iyzo – ozor berish, uyaltirish.
Imon – ishonch, e'tiqod.
Inoyat – mehribonchilik, marhamat.
Ins – inson, kishi, odam jinsi.
Inqiroz – botish, orqaga ketish, tamom bo'lish.
Ioda – qaytish.
Irtiqob – kirishish, biror noo'rin ishga kirishish.
Islah – tuzatish.
Istiqomat – turg'unlik, sog'lik, ishga chidamlilik.
Istihbob – sevis, ma'qullash.
Istehzo – masxara qilish.
Itoat – bo'ysunish.
Ifrot - oshirish, haddan oshish.
Iftiro - bo'hton, tuhmat
Iftixor - faxrlanish, maqtanish.
Iffat - poklik, tozalik, nomus, yomonlikdan saqlanish.
Ixtiro' - yangilik yaratish, o'ylab chiqarish.
I'tiroz — qarshilik, kelishmaslik
Iqtidor - qodir bo'lish, qudrat.
Ihtiroz - saqlanish, ehtiyotlanish.

K

Kabir – katta, ulug', qudratli.
Kavnayn – ikki dunyo.
Kaj – egri, qiyshiq, qing'ir.
Kazzob – yolg'onchi.
Kalima – so'z, nutq.
Kalom – so'z, gap, nutq.
Kamol – to'lalilik, mukammallik, talant.
Karon – chet, chegara, qirg'oq.
Kas – kishi, shaxs.
Kasir – ko'p, mo'l.
Kasolat – sustlik, bo'shashganlik.
Kashf – ochish, topish.
Kizb – yolg'on.
Kin – dushmanlik, ko'rolmaslik.
Kom – tilak, maqsad.
Kor – ish, mehnat.
Ko'shish – harakat, sa'y, tirishish.

L

Lafz – og'zaki so'z, ifoda.
La'l – qizil rangli tosh, qizil lab.
Lahja – sheva.
Lison – til.
Lobud – majburiy, bo'lishi shart.
Lutf – muloyimlik, rahmdillik, marhamat.

M

Mabno – asos, o'zak, poydevor.
Mavt – o'lish, vafot etish.
Mavsuf – sifatlangan, maqtalangan.
Magas – pashsha.
Maziyyat – ortiqlik, ziyodlik.
Mazmum – yomonlangan, nafratli, yomon.
Mazhab – yo'l, ta'limot, maslak.
Malak – farishta.
Malomat – ayblash, yomonlash.
Mamduh – maqtovli, maqtashga loyiq.
Mamnu' – man etilgan, taqiqlangan.
Mamot – o'lim, vafot.

Masmum – zaharlangan.
Masrur – xursand, shod.
Mas'ud – baxtli, saodatli.
Matin – mustahkam, puxta.
Matonat – qat'iyat, bardoshlik, chidam.
Mafhum – fahmlangan, tushunilgan tushuncha.
Mashru' – 1) qonuniy, ruxsat etilgan, 2) boshlanish.
Ma'rifat – bilim, bilish.
Ma'siyat – gunoh, isyon.
Maqbul – yoqimli, go'zal, ma'qullangan.
Maqol – so'z, nutq.
Mahv – yo'qolish, bitish, tugash.
Mahjub – 1) yopiq 2) kamtar .
Mahd – beshik.
Mahkum – hukm qilingan.
Moloya'ni – ma'nosiz, mazmunsiz.
Mor – ilon.
Moyayi zilli humodur – baxt-saodat asosi.
Muboh – ruxsat etilgan ish.
Muvaddat – do'stlik, o'rtoqlik.
Muvashshah – bezatilgan.
Mudohana – xushomadgo'ylik, laganbardorlik.
Mukallaf – 1) taklif etilgan, 2) burchdor .
Mulavvas – ifloslangan, palid, murdor.
Munis – do'st, o'rtoq.
Munislik – do'stlik, o'rtoqlik.
Munofiq – ikkiyuzlamachi, oraga nifoq soluvchi.
Murabbiy – tarbiyachi.
Murid – 1) talab etuvchi, istovchi 2) ergashuvchi.
Murofia – tortish.
Muruvvat – 1) mardlik, jasurlik 2) saxiylik.
Murshid – to'g'ri yo'lga soluvchi, yo'l ko'rsatuvchi.
Musammo – nomlanuvchi, ataluvchi.
Musahhar – fath etilgan, bo'ysundirilgan.
Musibat – qiyinchilik, og'irchilik.
Musoviy – teng, barobar.
Musovot – tenglik, barobarlik.
Musohib – hamsuhbat, do'st, ulfat.
Musrif – isrofgar, isrof qiluvchi.
Mutaassir – ta'sirlangan.
Mutafakkir – uzoq o'ylovchi, keng fikrli.
Muxolasat – samimiylilik, samimiyat.
Mushohada – ko'z bilan ko'rish, ko'zdan kechirish.
Mushtarak – umumiy, o'rtadagi.
Muqaddas – pok, toza, nuqsonsiz.
Muqobala – qarshi kelish, qarshi chiqish.
Muhib – sevuvchi, do'st tutuvchi.
Muhlik – xavfli.
Muhokama – hukm qilish, bir fikrga kelish.
Muhoraba – urush, jang.
Muhtaram – hurmatli, aziz.
Muhtasham – hashamatli, haybatli.

N

Nadomat - pushaymon qilish, afsuslanish.
Nazar - qarash, ko'rish.
Nazari ibrat - ibrat ko'zi.
Nazokat - noziklik, adab, tarbiya.
Nazofat - tozalik, poklik, ozodalik.
Nazohat - soflik, tozalik, nuqsonsiz.
Namimat - chaqimchilik.
Nammom - chaqimchi.
Nafsoniyat – o'z shaxsiyatiga berilish, o'z nafsiga tortish.
Nahy – qaytarish, man qilish, taqiqlash.
Nifoq – kelishmovchilik, munofiqlik.
Niqor – gina, dushmanlik, kek.
Noyil – yetishmoq, erishmoq.
Nor – o't, olov.

O

Odob - yurish-turishdagi yaxshiliklar (birligi - adab).
Olat - asbob, qurol (ko'pligi - olot).
Olom - alamlar (birligi - alam), dard, tashvish, qayg'u.
Orif - biluvchi, ma'rifatli, dono.
Osiy - gunohkor, gumroh, isyonkor.
Osor - belgilar, nishonalar (birligi - asar)
Osuda - tinch, tashvishsiz.
Otash - o't, olov.
Ofiyat - sog'liq, tinchlik.
Oqibat - oxir, so'ng, natija.

R

Rajo – umid, tilak.
Razzoq – rizq beruvchi, to'ydiruvchi, Xudo.
Razolat – pastkashlik, tubanlik.
Ranj – mashaqqat, mehnat.
Raxovat – dangasa, tanparvar, ishyoqmas.
Raqobat – qarama-qarshilik, musobaqa.
Rahnamo – yo'l ko'rsatuvchi.
Riyoziyat – qiynalish, mashaqqatlanish.
Rioyat – e'tiborga olish.
Roje' – qaytuvchi.
Rom – bo'ysunish.
Ruz – kun.

S

Sadoqat – do'stlik.
Sadr – 1) ulug' mansab; 2) boshliq.
Sayyid – 1) boshliq, yetakchi 2) Payg'ambar avlodi.
Saloh – qurol-yarog'.
Samara – 1) meva, 2) natija.
Saodat – baxt.
Sarvat – boylik.
Sarzanish – 1) koyish, jazo berish; 2) tanbeh.
Safolat – pastkashlik, xasislik.
Safohat – aqlsizlik, nodonlik, ablahlik.
Saxovat – saxiylik, qo'li ochiqlik.
Sa'y – harakat, tirishish, urinish.
Sahv – xato, yanglish.
Siloh – qurol, aslaha.
Siroyat – yuqish, ta'sir qilmoq.
Sobir – sabrli, sabr qiluvchi.
Soil – so'rovchi, tilovchi, qashshoq.
Surfa – yo'tal, ko'kyo'tal.
Su'izan – biron haqida yomon fikr qilmoq, haqorat, qasd.
Sunnat – qonun, odat.

T

Taaddi – zulm qilish, ezish.
Taayyish – shodlik, hayotdan rohatlanish.
Taarruz – qarshilik ko'rsatish.
Taassub – fanatizm, shovinizm, dushmanlik, ko'rolmaslik.
Tavozu' – adablilik, o'zini past tutish, kamtarlik.
Tavfiq – yordam, madad.
Tadovi – davolash.
Tajovuz – o'tish, chegeradan o'tish.
Tazvir – firib, aldash.
Takfir – kofir (ishonmovchi) deb hukm qilish.
Talx – achchiq.
Tama – ochko'zlik, qizg'anchilik.
Tamiz – sof, toza.
Taoli – yuksaklik, ko'tarilish.

Taraddud - ikkilanish, shubha, qat'i'yatsizlik.
Tafrit - ishga sustlik bilan qarash.

Tashbih - o'xsriatisri.
Tahammul - sabr, qanoat
Tahdid - qorqitish, doq qilish.
Tahluka - xavf, xatar.
Tibb - meditsina, tabiblik ilmi.
Tijorat - savdogarchilik

U

Ubudiyat - bandalik, qullik.
Uzr - 1) kechirim, 2) bahona, sabab. Ulamo - olimlar (birligi - olim). Ulviyyat - baland martabalik, yuqorilik Uluviyya - ulug'lik, oliy darajali.
Uluviyat - yuksaklik, ulug'lik
Umron - obod, obodonchilik
Ummat - kishilar to'dasi, bir payg'ambarga tobe kishilar.
Ummul xabois - yomonliklarning onasi.
Umur - ishlar (birligi - amr).
Uqubat - azob, qiyinchilik
Uhda - 1) majburiyat, 2) javobgarlik

F

Fano – tugalish, yo'q bo'lish, o'lish.
Farz – shart, majbur .
Fart – ortqlik, cheksizlik.
Fasod – buzilish, buzuqlik, ig'vo.
Fasohat – so'zning ravshan, yoqimli bo'lishi, chiroyli uslub.
Fatvo – shariat qonunlariga doir beriladigan yo'l-yo'riq, ko'rsatma.
Fatonat – o'tkir zehn, ziyraklik, tez fahmlik.
Fath – 1) ochish, 2) zabt etish, qo'lga kiritish.
Faqir – kambag'al, qashshoq.
Fido – qurbon qilmoq, bag'ishlamoq.
Fisq – buzuqlik, axloqsizlik.
Fiqh - islom diniy qoidalariga doir huquq ilmi.
Fosid - buzuq ishlar bilan shug'ullanuvchi, fasodchi.
Fohish - yomon ishlar qiluvchi, adabsiz.

X

Xalloq – yaratuvchi, Xudo.
Xam – egilgan, bukilgan.
Xandon – kuluvchi, shod, xursand.
Xarj – chiqim, sarf.
Xasosat – tama qilish, pastkashlik.
Xasta – kasal, bemor.
Xilvat – xoli, kimsasiz tinch joy.
Xilof – teskari, zid, haqiqatga qarshi.
Xirad – aql, hush.
Xiradmand – aqli, dono, bilimdon.
Xok – tuproq.
Xoksor – tuban, past, kamtar.
Xoliq – yaratuvchi, Xudo.
Xor – tikan.
Xudbin – takabbur, boshqalarni nazariga ilmovchi.
Xulafo – xalifalar (birligi – xalifa), yordamchi, o'rinbosar.
Xun – qon.
Xurofot – uydurma, asossiz gaplar.
Xurram – shod, xursand.
Xusumat – janjal, dushmanlik, ziddiyat.
Xush – yaxshi, ma'qul.

Ch

Charx - 1) aylanish, 2) ko'k, osmon, dunyo.
Chashm - ko'z, chashmi ibrat - ibrat ko'zi.
Cholishmoq - ishlamoq, mehnat qilmoq.
Choh - chuqur, quduq, zindon.
Chug'z - boyo'g'li, boyqush.
Cho'x - ko'p.

Sh

Shab - tun, kecha.
Shaji' - botir, jasur; shijoatli.
Shafi' - vositachi, himoyachi.
Shafolat - vosita bo'lish, vSsitachilik
Shaqovat - baxtsizlik, yaramaslik, yomonlik
Shahodat - guvohlik.
Shiddat - qattiqlik og'irlik.
Shijoat - botirlik, dovyuraklilik.
Shikasta - siniq, ko'ngli ozor topgan.
Shorn- kechqurun, qorong'ulik
Shomil - yoyilgan, yoymoq, umumga tegishli.

Ya

Ya's - ma'yuslik, umidsizlik, qayg'u.

Q

Qabohat – qabihlik, yomonlik.
Qavl – gap, so'z.
Qalb – yurak, dil.
Qanoat – sabrlik, chidam.
Qarobat – yaqinlik, qarindoshlik.
Qiroat – o'qish.
Qotil – o'ldiruvchi.
Quvvat – kuch, quvvat.
Qusur – kamchilik, nuqson.

G'

G'aniy – boy, badavlat.
G'arib – kimsasiz, musofir.
G'ubta – orzu, orzu qilmak, umid.

H

Hab – 1) dona, don; 2) no'xatdek yumaloq shakldagi dori (tabletk).
Havlnok – qo'rqinchli, dahshatli.
Hadis – so'z, gap.
Hayo – uyat, sharm, or, nomus, adab.
Halim – yumshoq tabiatlilik, muloyimlik.
Hamoqat – ahmoqlik.
Handasa – geometriya.
Harisona – ochko'zlarcha, tama'gir.
Hasab – soni, miqdori.
Hasad – ko'rolmaslik, qizg'anish.
Hasana – yaxshi, go'zal, chiroyli, yaxshilik.
Hasosat – hushyorlik, ziyraklik.
Hasud – hasadchi, ko'rolmaydigan.
Haqorat – tahqirlash, so'kish.
Hiddat – tezlik, o'tkirlik.
Hikmat – falsafa, donolik.
Hilm – yumshoqlik, muloyimlik, yuvoshlik.
Hisor – qo'rg'on, qal'a.
Hifz – saqlash, qo'riqlash.
Hubb – sevis.
Hukamo – hakimlar, donishmandlar, tabiblar (birligi – hakim).
Husud – hasadchi, hasad qiluvchi.

1. Yomonliq jazosi.....
2. Baxtli bola.....
3. Qanot.....
4. Zar qadrini zargar biladi.....
5. Yaxshilik yerda qolmas.....
6. To'g'rilik.....
7. Ittifoq.....

«IKKINCHI MUALLIM» KITOBIDAN

1. Maktab.....
2. Saxilik.....
3. Axloqiy hikoya.....
4. Arslon ila ayiq.....
5. Bulbul ila eshak.....
6. Bog'cha.....
7. Hasad balosi.....
8. Aqli bola.....
9. Yolg'on do'st.....
10. Chin do'st.....
- H. Xunjs ila bo'ri.....
12. Bolalar bog'chasi.....
13. Maktaba da'vat.....

«MAKTAB GULISTONI» KTOBIDAN

1. Vatan.....
2. Hijron so'zi.....
3. G'ayri jins ittifoq.....
4. Tulki va serka.....
5. Maymun ila ko'zoynak.....
6. It ila yo'lovchi.....
7. Zuluk ila ilon.....
8. Tulki va qarg'a.....
9. Yolg'onchi cho'pon.....
10. Lug'at.....